

INVESTITSIYALARNI FOND BOZORI ORQALI JALB QILISH ISTIQBOLLARI

Mamataliyev Bobur Saidnazar o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Inson resurslarini boshqarish (HR) bo'limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda investitsiyalarni fond bozori orqali jalb qilishning nazariy asoslari va amaliy istiqbollari tahlil qilingan. Global iqtisodiy integratsiya sharoitida kapital bozorining rivojlanishi iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqotda fond bozorining investitsion jozibadorlikka ta'siri, kapitallashuv darajasi, yashil obligatsiyalar emissiyasi, raqamli moliya instrumentlari hamda Ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) tamoyillarining ahamiyati o'rganildi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, fond bozori infratuzilmasini modernizatsiya qilish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish investitsion oqimlarni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli moliyaviy texnologiyalar va yashil moliya instrumentlarini joriy etish kapital bozorining samaradorligini oshiradi hamda iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlaydi.

Xulosa sifatida, fond bozorini rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishning barqaror va istiqbolli mexanizmi ekanligi asoslab berildi hamda mazkur yo'nalishda amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: fond bozori, investitsiya, kapital bozori, kapitallashuv, yashil obligatsiyalar, Ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG), raqamli moliya, investitsion jozibadorlik.

Global iqtisodiy integratsiya sharoitida kapital harakati va investitsion oqimlar iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilishda fond bozori muhim moliyaviy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali faoliyat yurituvchi kapital bozori iqtisodiy barqarorlik, ishlab chiqarish hajmining oshishi va yangi ish o'rinlarining yaratilishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston iqtisodiyotida ham fond bozorini rivojlantirish va uning investitsion salohiyatini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Fond bozori – bu moliyaviy instrumentlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar) orqali bo'sh mablag'larni iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirish mexanizmidir. U ko'plab imkoniyatlarni yaratadi. Masalan, korxonalar uchun uzoq muddatli moliyalashtirish manbai sifatida, xususiy kapitalni jalb qilish, investitsiya risklarini diversifikatsiya qilish, korporativ boshqaruv sifatini oshirish va boshqa turli misollar ko'rinishida ta'sir kuchiga ega hisoblanadi.

So'nggi yillarda kapital bozorlarida chuqur transformatsion jarayonlar kuzatilmoqda. Avvalo, raqamli moliya va fintech texnologiyalarining jadal rivojlanishi investorlar faolligining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli savdo platformalari, mobil ilovalar va onlayn brokerlik xizmatlari qimmatli qog'ozlar bozoriga kirishni soddalashtirib, aholi va kichik investorlar ishtirokini kengaytirmoqda. Ilmiy tadqiqotlar raqamli moliyaviy inkluzivlik iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi, kapital

aylanish tezligini oshirishi hamda moliyaviy tizim samaradorligini kuchaytirishini tasdiqlaydi.

Shu o'rinda, yashil moliya instrumentlarining kengayishi kapital bozorining yangi bosqichga o'tganini ko'rsatadi. Xususan, yashil obligatsiyalar (green bonds) va barqaror investitsiya fondlari ekologik loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirib, investitsion resurslarni atrof-muhitni muhofaza qilishga yo'naltirmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil obligatsiyalar emissiyasi kompaniyaning barqaror rivojlanish strategiyasini namoyon etuvchi ijobiy signal sifatida baholanib, aksiyalar bozorida investorlar ishonchini oshiradi.

Kapital bozorining rivojlanishida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Venchur kapital fondlarini tashkil etish, IPO jarayonlarini soddalashtirish, soliq va tartibga solish imtiyozlarini joriy etish startaplar va innovatsion korxonalar uchun qulay investitsion muhit yaratadi. Bunday mexanizmlar kapital oqimini faollashtirib, iqtisodiyotning real sektoriga moliyaviy resurslar kirib kelishini tezlashtiradi.

Shuningdek, ESG tamoyillari va korporativ shaffoflik masalalari zamonaviy investitsiya muhitining ajralmas qismiga aylanmoqda. Korporativ boshqaruv sifati, barqarorlik hisobotlari va ochiq moliyaviy axborot investorlar ishonchini mustahkamlab, uzoq muddatli kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada, fond bozori nafaqat moliyaviy vosita, balki barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi strategik institut sifatida shakllanmoqda.

Fond bozori orqali investitsiyalarni jalb qilish jarayonida bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ular investitsion jozibadorlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, bozor likvidligining pastligi qimmatli qog'ozlarning erkin muomalada aylanishini cheklaydi va investorlar uchun qo'shimcha risklarni yuzaga keltiradi. Aholining moliyaviy savodxonligi yetarli darajada rivojlanmaganligi ham muhim muammolardan biri hisoblanadi. Moliyaviy instrumentlar mohiyatini yetarlicha tushunmaslik, risklarni baholash ko'nikmalarining sustligi va investitsiya madaniyatining shakllanmaganligi jismoniy shaxslarning fond bozoridagi ishtirokini cheklaydi. Natijada ichki investorlar bazasi kengaymaydi va kapital bozorining chuqurlashuvi sekinlashadi.

Fond bozori orqali investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini oshirish uchun bir qator kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Avvalo, fond bozori infratuzilmasini raqamlashtirish va savdo jarayonlarini soddalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy elektron savdo platformalarini joriy etish, masofaviy identifikatsiya tizimlarini kengaytirish hamda brokerlik xizmatlarini optimallashtirish investorlar uchun qulay va tezkor muhit yaratadi.

Kapital bozorini diversifikatsiya qilish maqsadida yashil obligatsiyalar va boshqa innovatsion moliyaviy instrumentlarni joriy etish ham dolzarbdir. Bunday vositalar nafaqat investitsiya manbalarini kengaytiradi, balki barqaror rivojlanish loyihalarini moliyalashtirish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratadi.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha davlat dasturlarini kengaytirish ham investitsion muhitni yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Moliyaviy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish orqali jismoniy shaxslarning fond bozoridagi ishtirokini faollashtirish mumkin bo'ladi.

Fond bozori investitsiyalarni jalb qilishning samarali va barqaror mexanizmi hisoblanadi. Kapital bozorining rivojlanishi iqtisodiy o'sish, innovatsion loyihalarni

мoliyalashtirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda raqamli moliya, ESG standartlari va yashil moliyaviy instrumentlarni keng joriy etish fond bozori istiqbollarini yanada kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2021 yildagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-son Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5371091?ONDATE2=28.11.2024&action=compare>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
3. O'zbekiston Respublikasining 03.06.2015 yildagi "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi O'RQ-387-sonli Qonun <https://lex.uz/docs/-2662539>
4. Becha, H., Kalai, M., Houidi, S., & Helali, K. (2025). Digital financial inclusion, environmental sustainability and regional economic growth in China. Journal of Economic Structures, 14. <https://doi.org/10.1186/s40008-025-00347-4>
5. Chen, X., Wan, P., Ma, Z., & Yang, Y. (2024). Does corporate digital transformation restrain ESG decoupling? Evidence from China. Humanities and Social Sciences Communications, 11, Article 2921. <https://doi.org/10.1038/s41599-024-02921-w>
6. Kodiyatt, S. J., Nair, B. A. V., & Jacob, M. S. (2024). Does green bond issuance enhance market return of equity shares in the Indian stock market? Asian Journal of Financial Studies. <https://doi.org/10.1111/ajfs.12459>
7. Abdullayev, Y. A. (2021). Kapital bozori va uning iqtisodiyotni modernizatsiya qilishdagi o'rni. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
8. Vahobov, A. V., & Xodjayev, B. Y. (2020). Investitsiyalarni moliyalashtirish va kapital bozori rivoji. Toshkent: Universitet nashriyoti.

ИҚТИСОДИЁТНИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ ЖАРАЁНИДА ШАКЛЛАНГАН ФОНД БОЗОРИ ИНФРАТУЗИЛМАСИ ТАЪРИФЛАНИШИНИНГ НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ

Хўжамуродов Асқаржон Жалолович

Тошкент кимё-технология институти

"Менежменти" кафедраси мудури, (PhD), доцент

Фонд бозори инфратузилмаси, бу фонд бозорининг самарали фаолият юритиши ва мавжуд бўлиш шarti ҳисобланган, фонд бозори қонун қоидаларига асосан фаолият юритадиган, алоҳида ҳамда мустақил бўлган тизим ва тузилмалар мажмуаси сифатида талқин этилади. Шу нуқтаи назардан, фонд бозори инфратузилмаси инвестицион фаолиятга боғлиқ бўлиб, шу орқали иқтисодиётни барқарор ривожланиши, аҳоли турмуш даражасини оширишдаги ўрни муҳим эканлигини инобатга олиб, фонд бозори инфратузилмасини такомиллаштириш лозим деб ҳисоблайди.

Замонавий иқтисодий адабиётда, умуман, бозор инфратузилмаси ва, хусусан, фонд инфратузилмаси тушунчаси турлича талқин қилинади. Таърифларнинг ва турлича талқинларнинг кўплиги мазкур тушунчаларга таъриф беришга ёндашувлар кўплиги билан боғлиқ. Тадқиқот предмети бўйича замонавий фанда бозор инфратузилмасига берилган таърифларни учта асосий гуруҳга бўлиш мумкин:

Бозор инфратузилмаси – фаолият соҳалари ва тармоқлари мажмуаси бўлиб,